

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing .....</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari .....</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til .....</i>	189

## II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzitiv davr va nutq rivojlanishi .....</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi .....</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar .....</i>	251

# DUNYO TILLARINING SONI VA TURKIY TIL

**Yaxshiboyeva Madina Baxodirovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**


<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda hozirgi kunda dunyoda minglab tillar mavjudligi va biz dunyo tillarning soni, kelib chiqishi, eng ko'p gaplashiladigan tillar, turkiy tillar va dunyoda turkiy tillarning o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Dunyoda nechta til bor, dunyo tillarning soni, Eng ko'p foydalanadigan tillar, ularning ahamiyati va o'rni. Turkiy tillar, turkiy tillar tarixi va turkiy tillar oilasi.

Hammamizga ma'lumki dunyoda bir-biridan farq qiladigan ko'plab tillar mavjud. Dunyoda xalqlar xilma-xil tillardan foydalanishadi. Ammo fan aniqlik tarafdori shu sababli tilshunoslarimiz har yili tillar sonini hisoblab bormoqdalar. Har yili raqamlarda katta o'zgarishlar ro'y beradi. Sababi ko'plab tillar yildan yilga gullab yashnayotgan bo'lsa, ayrimlari esa teskarisi ya'ni yo'qolib bormoqda. Etnologni<sup>34</sup> ma'lumotlariga ko'ra dunyo tillari veb-nashrning 2015-yil 18 sonida 7472 til va lahjalar borligi mavjudligi keltirilgan. Dunyoda 7000 dan ortiq tirik tillarni qamrab oluvchi 142-xil til oilasi mavjud.

Shuningdek, 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra eng ko'p gaplashiladigan tillar qatoriga: birinchi o'rinda Xitoy tili, ikkinchi o'rinda Ingliz tili, uchinchi o'rinda Hind tili, to'rtinchi o'rinda Ispan tili, beshinchi o'rinda Fransuz tili, oltinchi o'rinda Arab tili, yettinchi o'rinda Bengal tili, sakkizinchi o'rinda Rus tili, to'qqizinchi o'rinda Portugal tili va o'ninchi o'rinda Urgu turadi.<sup>35</sup>




**1-rasm. Dunyoda eng ko'p so'zlashadigan tillar**

<sup>34</sup> Etnolog - turli jamiyat va madaniyatlarni o'rganuvchi shaxs.

<sup>35</sup> <https://www.berlitz.com/blog/most-spoken-languages-world>

Xitoy tili eng ko'p so'zlashuvchisi bo'lgani bilan ingliz tili qo'llanilishi darajasidan ya'ni ikkinchi til sifatida yoki muloqot tili sifatida eng ko'p 1.452 milliard kishi ingliz tilida qo'llaniladigan til hisoblanadi.

**Tillar oilasi**-bu bir xil ildizga ega bo'lgan qarindosh tillar guruhiga berilgan nom. Boshqacha qilib aytganda, bir til oilasiga mansub tillar bir xil kelib chiqishi ehtimol bir xil ibtidoiy tildan olinganligi qabul qilinadi. Ko'pgina tillarning yozma tarixi juda qisqa bo'lganligi sababli, juda oz sonli tillarning aniq keleb chiqishi ma'lum. Til oilalarini aniqlash uzoq ilmiy izlanishlar natijasida aniq bo'ladi.



2-rasm. Dunyo tillari<sup>36</sup>

Tirik va o'lik tillar- deb bugungi kunda gaplashib kelinayotgan tillarga tirik tillar deyiladi. Misol uchun ingliz tili, rus, nemis, arab tillari va boshqa shunga o'xshash bir qancha tillar. Yer yuzida hech bir joyida so'zlashilmayotgan tillarga o'lik tillar deyiladi.


Dunyodagi asosiy til oilalaridan biri o'zimizning turkiy tillar hisoblanadi.

Turkiy tillar 35 ta tirik tilni o'z ichiga oladi.

Turkiy tillar ichida eng ko'p so'zlashiladigani turk tili va turkiy tilda gaplashadiganlarning 43% ini tashkil qiladi.

Keyingi o'rinlarda ozarbayjon, o'zbek, uyg'ur, qozoq, turkman va tatar tillari keladi.

<sup>36</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon\\_tillari#/media/Fayl:Sprachen\\_der\\_Welt.png](https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_tillari#/media/Fayl:Sprachen_der_Welt.png)



**3-rasm. Turkiy tillar (foizda)<sup>37</sup>**

Shunindek, turkiy tillarda eng ko'p so'zlashadigani turk tili bo'lib 43% ini tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinda Ozarbayjon tili 15% ini tashkil qiladi va uchinchi o'rinda o'zimizning o'zbek tilimiz 14% ini taskil qiladi. To'rtinchi o'rinda Qozoq tili 7% ni, beshinchi o'rinda Uyg'ur tili 6% ini, oltinchi o'rinda Turkman tili 4% ini, yettinchi Tatar tili 3% ini, sakkizinchi Qirg'iz tili 2% ini va to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi o'rinlarda Qashqay, Boshqird, Chuvash tillari 1% ini tashkil qiladi. O'n ikkinchidan o'n oltinchi o'ringacha esa Afshar, Qoraqalpoq, Qorachoy, Saxa va Qrim tillari 0.5% ini egallagan. Boshqa tillari esa 0.8%ini tashkil qiladi. Turkiy tillarda bir xil ma'noda qo'llaniladigan umumiy so'zlar ko'p bo'lishidan tashqari, ularning gap tuzilmalari ham bir xil keladi.

#### **Kelajakning top 15 ta tillari:**

Dunyoda har bir davlatning o'z tili bor bo'lib, insonlar bir nechta tillarda so'zlashishadi. Boshqa mamlakatlar bilan muloqot qilish uchun esa ularga o'z ona tilida murojaat qilish kerak bo'ladi. Ayrim tillar ko'p foydalanishi tufayli global ahamiyatga egaligi bilan qo'llanilishi oshib bormoqda. Bular sirasiga: Xitoy, Portugal, Arab, Fransuz, Ispan, Rus, Nemis, Yapon, Vetnam tillari shular jumlasiga kiradi.<sup>38</sup>

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki hozirgi vaqtda 142 xil til oilasi borligi aytilmoqda va bularning Ichida eng ko'p qo'llaniladiganlaridan biri turkiy tillardir. Bugungi kunda ba'zi tillar yo'qolib ketish arafasida, Turkiy tillarning shuningdek, o'zbek tilini yo'qolib ketishini oldini olish uchun biz chora-tadbirlar, turli xil til kurslari, dasturlar ishlab chiqarishimiz va uni amalda joriy qilishimiz kerak. Misol uchun, Turkiya Milliy ta'lim vazirligi tarafidan turk tilini boshqa o'lkalarga yoyish maqsadida dunyoning 60 ga yaqin davlatida bepul turk tili kurslari tashkil qilingan.

<sup>37</sup> Muallif ishi

<sup>38</sup> <http://fledu.uz/kelajakning-top-15-tillari/>

Bu O'zbekistonda ham amalga oshirilyapti. Shuningdek, chet elliklar uchun bepul online kurslar, platforma va turli adabiyotlar yaratilgan. Biz ham o'zbek tilini yo'qolib ketishini oldini olish uchun shunga o'xshash o'z takliflarimizni bildirsak ya'ni;

- Chet elliklar uchun o'zbek tilidan bepul kurslar tashkil qilish.
- O'zbek tilini o'rganish uchun soda darslik va qo'llanmalar tuzish.
- O'zbek tilini o'rgatuvchi turli dastur va portallar ishlab chiqish.
- Hozirgi internet davrida masofadan turib o'zbek tilini o'rganish uchun portal va onlayn video darslar tayyorlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Sabirov, K. (2024). Econometric modeling of development trends in the food industry. Nordic\_Press, 1(0001).
2. Nusratovich, S. K., & Asidakhan, A. (2023). STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 7-10.
3. Nusratovich, S. K., & Khurshidbek, T. (2023). RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 788-794
4. <http://ethnologue.com/>
5. <https://www.milliyet.com.tr/>
6. <https://n.ziyouz.com/>
7. <http://fledu.uz/kelajakning-top-15-tillari/>
8. <https://taskentem.meb.gov.tr/>
9. <http://library.navoiy-uni.uz/files/tilshunoslik-nazariyasi-pdf/>
10. <https://www.berlitz.com/blog/most-spoken-languages-world>